

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY BOSHQARUV FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

Axmedova Oydin
Shixnazar qizi

« Ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash va mahsulot
raqobatbardoshligini boshqarish»

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Menejment va marketing» kafedrasi mudiri

_____ i.f.n., dots. O.Jumayev

« _____ » _____ 2014 yil

Bitiruvchi :

5340200 -“Menejment”- ta'lim yo'nalishi

4 -kurs talabasi

Axmedova Oydin
Shixnazar qizi

Ilmiy rahbar:

i.f.n. O.Saydaxmedov

.

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

betlar

KIRISH.....	33
1-bob ISHLAB CHIQARISHNI MODERNIZATSIYALASH VA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	55
1.1. Ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash jarayonini tashkil etishning nazariy asoslari.....	55
1.2. Korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.....	13
1.3. Korxonalarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mahsulot sifatini oshirish usullari.....	21
2-bob “AGRO MASH” OAJNING BOSHQARUV FAOLIYATI VA MOLIYAVIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	31
2.1. “AGRO MASH” OAJning boshqaruv faoliyati tahlili.....	31
2.2. “AGRO MASH” OAJda boshqaruv jarayonlarini rivojlantirish....	36
2.3. “AGRO MASH” OAJning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	39
3-bob KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI MODERNIZATSIYA- LASH VA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH- NING USTUVOR VAZIFALARI.....	48
3.1. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mahsulot raqobat- bardoshligini oshirishning xorij tajribasi.....	48
3.2. Korxonalarni modernizatsiyalash sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	54
Xulosa.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	60
Ilovalar.....	63

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Yurtimizda iqtisodiy islohotlar borgan sari chuqurlashib, bozor munosabatlariga asoslangan yangi mustaqil milliy iqtisodiyotni barpo etish jarayonlari tezlashmoqda. Bu jarayonlarni tezlashtirishda ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini boshqarish o'zni katta ahamiyatga ega . O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, -“Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarda turadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin”¹.

Shu nuqtai nazardan iqtisodiyotni modernizatsiyalash bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha birinchi navbatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, hamkorlik aloqalarini kengaytirish, mustahkan hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarigan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi keyingi 23 yil davomida iqtisodiyotni bosqichma-bosqich tarkibiy o'zgartirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsadlari boshida yalpi milliy mahsulotni raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan iqtisodiyotni modernizatsiyalashdan iborat. Mamlakatimizda o'z vaqtida tanlab olingan iqtisodiy taraqqiyot modelining asosiy tamoyillari asosida ishlab chiqilgan,

¹ Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz tarqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2012. 36-b.

chuqur va har tomonlama o'ylangan iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiyalash bo'yicha ishlar amalga oshirilishi natijasida 2013-yil yakunlari² ga ko'ra, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti – 8,0 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi – 8,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti. “BMKB-Agro Mash” ochiq aksiyadorlik jamiyati.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. “BMKB-Agro Mash” OAJning boshqaruv faoliyati tahlili, moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlili va mahsulot raqobatbardoshlini oshirish bo'yicha masalalari olingan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Respublikamizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishni takomillashtirish, rivojlangan mamlakatlar qatori zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash va mahsulot raqobatbardoshligiga erishish uchun uning sifatini oshirish jarayonida qo'l keladigan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqarishdan iborat.

Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida asoslangan xulosava tavsiyalar mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish va mahsulot sifatini oshirishning nazariy va amaliy muammolarini o'rganish asosida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda boshqarishni samarali tashkil etish yo'llarini o'rganish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilmasi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi tarkiban kirish, 3 ta bob, xulosa, takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan tashkil topgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi “2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasi. –Toshkent, Toshkent oqshomi gazetasi, 2014-yil, 20-yanvar.

1-BOB. ISHLAB CHIQRISHNI MODERNIZATSIYALASH VA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash jarayonini tashkil etishning nazariy asoslari

Modernizatsiya keng tushuncha bo'lib, uni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tadbiquan qo'llash mumkin. Bu eng avvalo modernizatsiyalash jarayonini turli jihatlarga ko'ra tasniflash orqali namoyon bo'ladi.

“Modernizatsiya, modernizatsiyalash (inglizcha moderne-eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish degan ma'noni bildiradi. Modernizatsiyalashda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi”³.

Xususan, ular modernizatsiya tushunchasiga tor ma'nodagi yondashuv sifatida quyidagi mazmundagi ta'rifni berish mumkin: “Modernizatsiya – obyektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan, mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi”. Bundan ko'rinadiki, tor ma'nodagi modernizatsiya atamasi asosan texnika, texnologiyaga oid tushuncha hisoblanadi.

Modernizatsiya – ishlab chiqarishning tayyorlanayotgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan texnologik yangilanish jarayonidir. U korxonalarning texnologik qoloqligini bartaraf etish vositasi bo'lib, mehnat, moddiy va xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish darajasiga keskin ta'sir ko'rsatadi. Modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash natijalari yuqori texnologik, raqobatdosh ishlab

³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent. 673-b.

chiqarishning jadal rivojlanish shartini belgilab beradi⁴.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda modernizatsiya jarayonini tavsiflashdagi turlicha yondashuvlar mazmuni bayon etilgan (1-jadval).

1-jadval


Modernizatsiya jarayonini tavsiflashdagi turlicha yondashuvlar⁵

Yondashuv yo'nalishlari	Modernizatsiya jarayonining qisqacha tavsifi
Klassik sotsiologiya (E.Dyurkgeym, M.Veber)	Ijtimoiy mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi ijtimoiy tabaqalanish jarayoni
	Xo'jalik subyektlarining o'z faoliyatlari iqtisodiy samarasini eng yuqori darajada oshirish imkoniyatini beruvchi ratsionalizatsiya jarayoni
Neoklassik maktab	Xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash vositasi
Keynschilar maktabi	Zamonaviy tarmoqlarni barpo etish maqsadida xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar

Jadvalga ko'ra, modernizatsiya jarayoni mazmunini klassik sotsiologiya vakillari "ijtimoiy tabaqalanish" hamda "ratsionalizatsiya" jarayonlari, neoklassik maktab vakillari "xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash vositasi", keynschilar maktabi vakillari esa "xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar" sifatida talqin etadilar. Keng ma'nodagi modernizatsiyani tavsiflovchi turli jihatlar ham ushbu ijtimoiy jarayon mazmunining turli-tuman va serqirraligini ko'rsatadi (1-rasm). Keng ma'nodagi modernizatsiya jarayonining tavsiflari qatorida shuningdek, uning quyidagi tamoyillarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

⁴ Iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalarining texnik modernizatsiya va diversifikatsiya qilish darajasini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Tavsiya O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi (№2-1-7/49, 22.09.2010 y.) va Davlat statistika qo'mitasi (№04-8, 14.09.2010 y.) tomonidan tasdiqlangan.

⁵ Amonboyev M.R. Korporativ korxonalar faoliyatini innovatsion boshqarish sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari. Iqt.fan.nomz...diss. T.:2012.20-bet.



1-rasm. Keng ma'noli modernizatsiyani tavsiflovchi turli jihatlar⁶

- uning majmuaviyligi, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishi; uning tizimiyliigi, ya'ni jamiyat hayoti har qanday tarkibiy qismi yoki yaxlit sohasining o'zgarishi boshqalarining o'zgarishiga olib kelishi. Masalan, madaniy va siyosiy o'zgarishlar iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga olib keladi va aksincha;

- uning global tavsifi – u dastlab bir necha ilg'or mamlakatlarda boshlanib, keyinchalik butun dunyoga tarqalmoqda;


- uning davomiylik tavsifi – modernizatsiya qisqa davrda ro'y bermaydi, balki u bosqichlarga bo'linadi (islohotlarni amalga oshiruvchi yetakchi guruhning paydo bo'lishi, o'zgarishlarni ilgari surish, ular natijalarining tarqalishi va mustahkamlanishi);

- tabaqalashganlik tavsifi – modernizatsiya turli mamlakatlarda turlicha ro'y berib, u yoki bu xolda milliy madaniyat va ahloq an'alariga tayanadi (masalan, "yapon iqtisodiy mo'jizasi"), G'arb va Yevropa qadriyatlari foydasiga ulardan to'liq voz kechishni taqozo etmaydi.

Shu o'rinda, fikrimizcha, modernizatsiyalashning innovatsion tavsifi, ya'ni u orqali jamiyatning turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining turli

⁶ Amonboyev M.R. Korporativ korxonalar faoliyatini innovatsion boshqarish sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari. Iqt.fan.nomz...diss. T.:2012.22-bet.

jabhalariga yangi usul va vositalarni tatbiq etish nuqtai nazaridan yondashish tamoyilini kiritish ham mantiqiy, ham ilmiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi.



2-rasm. Modernizatsiya jarayonining tamoyillari⁷.

Ba'zi manbalarda modernizatsiyaning alohida jihatlariga e'tibor qaratiladi. Masalan, an'anaviy jamiyatdan yoki industrial jamiyatga murakkab o'tish jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy modernizatsiya ajratilib, uning mazmunini umumiy tizimiy o'tishning ajralmas tarkibiy qismi sifatidagi siyosiy tizimning o'zgarishi tashkil etishi ta'kidlanadi. Umuman olganda, modernizatsiya juda jeng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin. Zero, bu holat mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2005-yil 28-yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ko'rsatib o'tilgan mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishning ustuvor yo'nalishlari, xususan iqtisodiyot sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi dolzarb vazifalar orqali yaqqol namoyon bo'ladi:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish;
- iqtisodiyotning turli sohalarini erkinlashtirish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida hozirgacha o'tmishdan meros sifatida

⁷ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

saqlanib qolayotgan ma'muriy-taqsimot tizimi mezonlaridan voz kechish;

- xususiy sektorning yanada jadal rivojlantirilishini yanada ta'minlash;
- davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini

yanada ko'proq cheklash;

- kichik biznes va fermerlikni rivojlantirishga e'tiborni qaratish;
- xususiy tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug'ullanuvchilar

faoliyat ko'rsatishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ularni rag'batlantirib borishni tashkil etish;

- soliq tizimini yanada takomillashtirish;
- soliqqa tortish borasida qo'shimcha imtiyozlar va pereferensiyalar

berilishini ta'minlash va boshqalar⁸.

Umuman olganda, modernizatsiyalash jarayonlari ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab olib, ayniqsa, mazkur yo'nalishlar orasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi. Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta'minlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori kon'yunkturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan "chidamliligi", mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyotdagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog'liqdir. Biroq, shu bilan birga iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlashga harakat qilishi lozim.

Iqtisodiy fanda modernizatsiyalash jarayonlarini turkumlash katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, texnologik (K.Levi-Stross), funksional (N.Smelser) va global (P.Viner) modernizatsiyalar farqlanadi. Alohida mamlakatlarda modernizatsiya bosqichlarining turlicha talqini farqlanadi⁹.


⁸ Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish etishlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.//Xalq so'zi, 2005-yil 29-yanvar, N 13, 3-b.

⁹ Amonboyev M.R. Korporativ korxonalar faoliyatini innovatsion boshqarish sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari. Iqt.fan.nomz...diss. T.:2012.22-bet

Modernizatsiyalash jarayonlarining bosqichlari to'g'risida so'z ketganda, fikrimizcha, nazariy jihatdan, mazkur jarayonlarini qo'llashning turli darajalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. (3-rasm).

Birinchi (eng quyi) daraja – alohida texnika, texnologiyani modernizatsiyalash bo'lib, ko'proq tor ma'nodagi modernizatsiyalash tushuncha-siga to'g'ri keladi.

Ikkinchi daraja – ishlab chiqarishni modernizatsiyalash yaxlit ishlab chiqarish jarayonlarini namoyon etib, o'z ichiga funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan texnika va texnologiyalar bilan bir qatorda ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonlarini modernizatsiyalashni ham oladi.




3-rasm. Modernizatsiyalash jarayonlarini qo'llashning turli darajalari.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta jihozlash kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon hisoblanadi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonalardan eskirgan asbos-uskunalarni chiqarish;
- ishlab chiqarishni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash;
- mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish;
- ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash;
- sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy qilish;
- chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish.

Bularni quyidagi chizma orqali ko'rish mumkin (4-rasm):



4-rasm. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va vositalari¹⁰.

Uchinchi daraja – korxona faoliyatini modernizatsiyalash bo'lib, korxonadagi ishlab chiqarish jarayoni bilan, bir qatorda boshqaruv va boshqa tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni modernizatsiyalashni ham ko'zda tutadi.

To'rtinchi daraja – jamiyatning alohida jabhalarini modernizatsiyalash, keng ma'nodagi modernizatsiyalashning quyi bo'g'ini hisoblanadi. U iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa jabhalardagi modernizatsiyalash jarayonlaridan iborat.

¹⁰ I.Karimovning "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasi bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent: "O'zbekiston", 2013. 89-b.

Beshinchi (eng yuqori) daraja – yaxlit jamiyat (ijtimoiy tuzum)ni modernizatsiyalash keng ma’nodagi modernizatsiyalashning yuqori bo’g’ini. Umumiy holda jamiyatni barcha ko’rsatkichlar va yo’nalishlar bo’yicha bir sifat holatidan nisbatan yuqori bo’lgan sifat holatiga o’tkazilishini ko’zda tutadi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash serqirra va murakkab jarayon hisoblanadi. U eng avvalo korxonalarda uzoq vaqtlardan buyon foydalanib kelinayotgan, bugungi kunda ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan eskirgan asbob-uskunalarni foydalanishdan chiqarilishini taqozo etadi. Chunki ishlab chiqarishga jismonan eskirgan asbob-uskunalarni qo’llash umumiy holda resurslar sarfining oshib ketishi, nuqsonli va yaroqsiz mahsulotlarning ishlab chiqarilishi, ularning sifati hamda iste’mol xususiyatlarining pasayishiga olib kelsa, ma’naviy eskirgan asbob-uskunalar ko’proq mahsulotlar tannarxining nisbatan yuqori bo’lishi yoki iste’molning zamonaviy darajasiga javob bermasligi orqali jiddiy muommolarni keltirib chiqaradi.

Biroq, shuni ham hisobga olish kerakki, hozirda korxonalrda mavjud bo’lgan va ishlatilib kelayotgan asbob-uskunalarni zamonaviy jihatlar bilan qisqa muddatda va yalpi xolda almashtirib bo’lmaydi. Bu, birinchidan, juda katta moliyaviy mablag’larni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, amaldagi ishlab chiqarish jarayonining to’xtatib qo’yilishiga olib keladi. Shunga ko’ra, korxonaning ko’lami mahsulotning ahamiyati, texnik-texnologik va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda ushbu jarayonni bosqichma-bosqich, izchil ravishda amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

Eskirgan asbob-uskunalaridan voz kechish o’z o’rnida ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash vazifasini ko’ndalang qo’llanilishi quyidagi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi:

- jahon miqyosida talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqarilishi;
- mahsulot tannarxining ahamiyatli darajada pasaytirilishi hisobiga korxona moliyaviy natija va imkoniyatlarining kengayishi;
- xomashyo va resurslarning tejilishi;

- mahsulot va xizmatlar yangi turlarini ishlab chiqishni yo'lga qo'yish orqali ishlab chiqarish diversifikatsiyasining amalga oshirilishi.

Agar mazkur texnika va texnologiyalar ilgari amalda qo'llanilmagan ishlanma va g'oyalarga asoslangan bo'lsa, u xolda ulardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yanada yuqoriroq bo'ladi. Innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi ushbu sohada qo'llanib kelinayotgan texnologiyalarga nisbatan yuqoriroq samaraga erishish imkonini beradi.

Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish – modernizatsiyalash jarayonining zarur shartlaridan biridir. Chunki bu tadbir ham korxonadagi mavjud texnika va texnologiyalarni sifat jihatdan takomillashtirish, ishlab chiqarishni yangi, qo'shimcha jiholarni tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. Mahsulot assortimentini kengaytirish, bir tomondan, chiqitsiz texnologiyalarni qo'lash yoki mavjud chiqindilardan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga, amalga oshirilishi mumkin.

1.2. Korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari

Raqobat, raqobatbardoshlik va raqobatda ustunlik borasidagi turli nazariy konsepsiyalar va amaliy yondashuvlar mavjud. Mazkur tushunchalarga xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar qiyosiy tahlil etilib, quyidagicha ta'rif berish mumkin: “Raqobat – bu, subyektning o'zi uchun maqbul sharoitga intilishida tovar yoki xizmatlarning narxi va sifati muvofiqligiga erishish yo'li bilan iste'molchilarning ishonchini qozonishi, ko'zlangan pul manlag'lariga ega bo'lishi uchun bozor subyektlari o'rtasida yuzga keladigan bahs, musobaqa kurashidir”¹¹. “Raqobatbardoshlik – bu, o'ziga o'xshash raqobatchilar bilan olib boriladigan bahs, musobaqa kurashida tenglikni saqlab turish, ba'zi holatlarda ustunlikka erishish qobiliyatidir”. “Raqobatdagi ustunlik – bu, bozor

¹¹ Safarov N. Ch. Xalqaro transport xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari: avtoreferati Toshkent-2012. 9-b.

subyektining raqobatchilar bilan bo'ladigan narx, sifat hamda ularning muvofiqligi bo'yicha tafovutning, naflilikning xaridor va iste'molchilar uchun farqli ko'rinishidir".

Raqobat va raqobatbardoshlik o'rtasida aloqadorlik mavjud bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Raqobat korxona (firma) larni raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga va xizmatlar ko'rsatishga undaydi.

Raqobatbardoshlik nisbiy o'lchov bo'lib, xususiyati, shundan iboratki, uni raqobat predmeti (mahsulot raqobatbardoshligi)ga nisbatan ham qo'llash mumkin. Raqobatbardoshlik deganda, datda, Tovar ishlab chiqaruvchilarning minimal rentabellikni ta'minlaydigan narxda tashqi bozorda sotish uchun ishlab chiqarishga bo'lgan qobiliyati tushuniladi. Raqobatbardosh tovarlar bozori cheklanib qolmaydi, makroqitisodiy mazmunga ega bo'ladi.

Mahsulotning raqobatbardoshligi deganda, iste'molchining aniq ehtiyojlarini qondirish va uni xarid qilish hamda keyinchalik undan foydalanish uchun sarflanadigan harajatlar darajalari bo'yicha uni, ya'ni mahsulot boshqa shunday tovarlardan ajralib turadigan tavsiflar yig'indisi tushuniladi.

Mahsulot raqobatbardoshligi – biror bir firma tomonidan ishlab chiqarilgan, raqobatchi firmalarning xuddi shunday tovarlariga qaraganda yaxshiroq iste'mol xususiyatlari va texnik-iqtisodiy parametrlariga ega bo'lgan tovarlarning iste'molchilar tomonidan ajratib olinish "qobiliyati"dir.

Raqobatbardoshlik aynan bozorda kuzatiladi va tovarlarning iste'molchi ehtiyojlariga muvofiq kelishi solishtirib va tekshirib ko'riladi. Ana shunda tovarning raqobatbardoshligi real xaridni amalga oshirayotgan xaridor uchun jozibadorlik darjasini ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kuchli raqobat bozorda tanlanganini olish mumkin bo'lgan turli tovarlar, ular nomenklaturasining tez yangilanishi firma oldidagi muntazam ishlab chiqariladigan mahsulotni xaridor qanday qarshi oladi, tovar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligining sababi nimada, degan savollar qo'yadi. Bunday muammolarni tahlil qilish zaruriyatiga yangi buyumlarni ishlab chiqish narxi, ularni yaratish bilan bog'liq tavakkalchilikning

oshishi sabab bo'ladi. Bularning hammasi korxonani ishlab chiqarilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini diqqat bilan o'rganishga majbur qiladi¹².

Bizga amaliyotdan ma'lumki, raqobat o'zaro musobaqa shakli bo'lgan va bo'lib qoladi. Boshqacha aytganda, zamonaviy bozorda raqobat "g'alaba emas, muhimi qatnashish", degan musobaqa emasdir.

Ma'lumki "raqobatbardoshlik" tushunchasi "raqobat" tushunchasining bir qismidir. Agar korxona bozorda muvaffaqiyatsiz raqobat qilayotgan bo'lsa, uning mahsuloti raqobatbardosh emas.

Raqobatbardoshlik – mazkur bozorda mavjud eng yaxshi o'xshash obyektlariga nisbatan aniq ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi obyekt xususiyatidir.

Shu bilan birga raqobatbardoshlik – aniq bozor sharoitlarida boshqalar bilan musobaqada chidash imkoniyati hisoblanadi. Raqobatbardoshlik marketing tadqiqotlari natijalari bo'yicha aniqlanadi. U tovarning ham aniq ijtimoiy ehtiyojga moslik darajasi, ham uni qondirishga sarflangan harajatlar bo'yicha uning raqib tovaridan farqini ifodalovchi tavsifidir.

O'zbekiston amaliyotida tovarlarga nisbatan "mahsulot raqobatbardoshligi" tushunchasi bilan amalda bir xil ma'noga ega "mahsulot sifati" tushunchasi ko'proq qo'llanadi, chunki mahsulot sifati deb kamroq harajat qilib, xaridorni maqbul xolda qondirish xususiyati tushuniladi.

Mahsulotning raqobatbardoshligi uning sifati va narxiga ko'ra shu turdagi boshqa ishlab chiqaruvchilarning mahsulotidan ustunligi bilan belgilanadi. Firmalarning raqobatbardoshligi esa turdosh, raqobatlashuvchi korxonalarga nisbatan bir xil yoki o'rnini bosuvchi mahsulotlarni iste'mol xarakteristikalarini bo'yicha sifatli va pastroq narxlarda ishlab chiqarish hamda yetkazib berish imkoniyati bilan bog'liq.

Firmaning raqobatdagi ustunliklarini bir qator omillar belgilab beradi. Bularni ikki guruhga ajratish mumkin:

¹² Peregudov L.V., Fayziyev R.R. va boshqalar Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini boshqarish. Toshkent – "Moliya" – 2012. 26-b

- milliy kompaniyalarning rivojlanish darajasi;
- makroiqtisodiy biznes muhitning sifati¹³.

Shvetsariyaning Davos shahrida har yili bo'lib o'tadigan Jahon iqtisodiy forumining ishtirokchilari ma'ruzalarida firmalar darajasidagi raqobatdoshlik to'rtta asosiy omil bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi:

- resurslar (mamlakatda korxona mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi uchun resurslarning mavjudligi, hajmi va sifati);
- tashqi raqobat;
- talab;
- tarmoqlararo aloqalar.

Iste'molchi nazarida yuqoriroq sifati bilan ajralib turgan buyumlar raqobat ustunligiga egadir. Ammo, bunday yondashishda mazkur mahsulotni tayyorlash mehnat sig'impliligini material sig'impliligi, konstruksiyasining muhim xususiyatlari chekkada qolib ketadi.

Tovar raqobatbardoshligining asosiy tashkil etuvchisi uning iste'mol xususiyatlari va narxidir. Lekin tovarning bozor istiqbollari faqat sifat va ishlab chiqarish harajatlariga bog'liq emas. Tovarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligi sabablari ta'minlovchining reklama faoliyati, nufuzi, texnikaviy xizmatning taklif etilayotgan darajasi kabi boshqa notovar omillar bo'lishi mumkin.

Lekin raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha korxona faoliyatining ishlab chiqarishga oid bo'lmagan jihatlari qanchalik muhim bo'lmasin, asos – sifat, narx va texnikaviy xizmatdir.

Tovar raqobatbardoshligini oshirish uchun raqobatbardoshlikni miqdoriy o'lchash imkonini ta'minlash kerak, bu esa uning darajasini oshirish imkonini beradi, iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi shaklida shunday miqdoriy ma'lumotni yig'ish mahsulot raqobatbardoshligini yaxshilash jarayonining muhim bosqichidir. Miqdoriy ko'rsatkichlar tahlili joriy davrda raqobatbardoshlik

¹³ Alimov R., Rasulev A., va boshq. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. –T.:Konsauditinform-Nashr. 2006, 14-b.

darajasi, uni oshirish zarurati darajasi, bu maqsadga erishish potensial usullari haqida fikr yuritish imkonini beradi. Undan tashqari, aytib o'tilgan ko'rsatkichlardan foydalanib, boshlang'ich davrda ko'rilgan chora-tadbirlar samarasiga baho berish mumkin. Tahlil qilinayotgan tovar raqobatbardoshligini o'lchash uchun mazkur va raqib tovarlar xizmatining me'yoriy muddatda foydali samarasini tavsiflovchi sifat ma'lumotini hamda obyektlar hayotiy sikllari davomidagi jami sarflarni bilish zarur.

Menejer o'z firmasi buyumlari raqobatbardoshligini o'rgangandan keyin, ular raqobatbardoshligini oshirish va erishilgan darajada ushlab qolish uchun zarur bo'lgan aniq chora-tadbirlarni bajarishga kirishishi lozim. Bu yo'nalishda ish tovar raqobatbardoshligini boshqarishga yondashish jihatlarini tanlashdan boshlanadi. Bunday yondashishlardan bir nechitasi ma'lum: tizimli, majmuiy, funksional.

Tizimli yondashish – asosida obyektlarni yaxlit tizim sifatida o'rganish yoki maxsus ilmiy bilish va ijtimoiy amaliyot uslubidir. Tizimli yondashishning eng muhim tamoyillari quyidagilar:

- qarorlar qabul qilish jarayoni oxirgi maqsadlarni aniq belgilash va ravshan ifodalashdan boshlandi;
- doirasida har bir xususiy yechimning barcha oqibatlari va o'zaro bog'lanishlari aniqlanadigan butun muammo bir butunlik, yagona tizimdek ko'riladi;
- maqsadga erishishning imkoni bo'lgan muqobil yo'llarini aniqlash va tahlil qilishning xosligi;
- ayrim kichik tizimlarning maqsadlari butun tizim maqsadlari bilan to'qnashish mumkin emas.

Tizim – ma'lum yaxlitlik, birlikni hosil qiladigan munosabat va aloqalarda bo'lgan elementlar majmuasi. Tizimli tahlil tamoyillaridan kelib chiqib, marketing tadqiqotlari asosida avval tovar yoki xizmatlar parametrlari shakllantiriladi: nima chiqarmoq, qanday sifat ko'rsatkichlari va qanday sarflar bilan, kim uchun qaysi muddatda, kimga va qanday narxda sotmoq kerak? Eng

avvalo, tovar me'yorlari bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi kerak. Undan keyin resurslar va ma'lumotnoma kerakligi, ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy darajasi (texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, mehnat va boshqarishni tashkil qilish) va tashqi muhit parametrlari (siyosiy, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy-demografik, mamlakatlar madaniy muhiti va mazkur mintaqa infratuzilmasi) ni o'rganib, nimalarni oldindan ko'rish mumkinligi aniqlanadi.

Tovar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun tovar iste'molchiga uchun tovar iste'molchiga yetkazilib beradigan paytgacha marketing tadqiqotlari natijalari jahon yutuqlari darajasida bo'lishi, muhit tizim ichida jarayonlar me'yorida kechikishiga ko'maklashishi kerak. Ammo shuni qayd qilish kerakki, oldin tizimning chiqishiga, keyin chiqishiga va faqat undan keyin jarayonga bo'lgan talablar shakllantiriladi. Boshqacha aytganda, oldin tashqi muhit bilan bo'lgan munosabatlarni aniqlash kerak va faqat undan keyin jarayon sifatini oshirish ustida ishlash lozim.

Mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishga bunday yondashish tovarni bozorga tatbiq qilish paytiga uni ishlab chiqarish eng yaxshi jahon namunalari darajasida ta'minlashiga da'vat qiladi. Mahsulotni yangilash rejalashtirilganda raqiblardan o'zib ketish uchun tovarga qo'yiladigan bo'lajak talablar muhim ko'rsatkichlari rivojlanishining tendensiyalarini oldindan ko'rish uchun sifatli ma'lumotdan foydalanish kerak.

Majmuiy yondashish boshqarishning texnikaviy, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa jihatlari o'zaro bog'lanishda ko'rishni nazarda tutadi.

Funksional yondashishda bitta ehtiyojni qondirish uchun yangi muqobil tuzilmalar va usullar qurish yo'lidan boriladi. Tovar hayotiy siklidagi yig'indi harajatlar birligiga maksimal foydali samara beradigan obyekt tanlanadi. Mazkur yondashishning asli – yangi yoki mavjud ehtiyojlarni qondirish uchun butunlay yangi tovarlarni yaratishdir.

Korxona mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishning o'z-o'zidan ko'rinib turgan usullari ishlab chiqarish harajatlari darajasini iste'molchi

harajatlari darajasidan pasaytirish, mahsulot sifatni oshirish yoki iste'molchi sotib olgandan keyin tovarga qilinadigan xizmat sifatini oshirishdir. Lekin raqibidan ustunroq chiqishning boshqa usuli ham bor. U firma bozorda qandaydir jabhada aniq ifodalangan kompetensiyaga erishishga harakat qilishidan iboratdir.

Aniq ifodalangan kompetensiyaning ma'nosi shundaki, firma mahsulot ishlab chiqarishda yoki uni tarqatishda nimanidir o'z raqiblaridan yaxshiroq qiladi, bu esa mijozlarni o'ziga jalb qilish va saqlab qolish imkonini beradi. Ba'zan mahsulot narxi raqib firmalarnikidan yuqoriroq bo'lsa ham, lekin kompaniya, masalan, eng mustahkam soatlar yoki eng kam raqiblarnikiga nisbatan raqobatdoshliroq bo'ladi. Raqobatdoshlikni oshirish maqsadida harajatlarni kamaytirish yoki chora-tadbirlarni baravariga amalga oshirishga harakat qilish shart hisoblanmaydi. Ayrim hollarda raqobatbardoshlik janhasida firma tovariga nufuz yoki kompetensiya beradigan qandaydir o'rnini tanlash samaraliroq bo'ladi. Iste'molchilar o'rtasida kompaniya obro'ga ega bo'lishi mumkin bo'lgan o'rinlardan bir nechtasini aytish mumkin:

- mahsulotning texnikaviy tavsiflari bo'yicha peshqadamlik;
- buyumning ishonchliligi bo'yicha peshqadamlik;
- buyumlarning baland narxidan iste'molchilarni qaytmaslikka undaydigan buyum mustahkamligi bo'yicha peshqadamlik;
- yetkazib berish bo'yicha peshqadamlik;
- buyurtmachilar talablariga binoan buyumlarni "individuallashtirish".
- mahsulotni bozorga tatbiq etish;
- ishlab chiqarish hajmini maslashuvchan boshqarish.

Bizning bozorimiz raqobat nimaligini anglab bo'lgan. O'zbekistonda sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi firma va korxonalar yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bozorimiz mahsulotlar bilan to'yingan, ular chet davlatlarga eksport qilinmoqda. Bizning ichki bozorimizda xorijiy mahsulot bilan muvaffaqiyatli raqobat qilish uchun korxona qanday chora-tadbirlar ko'rishi kerak, bozorda tovar muvaffaqiyatini oldindan qanday bilishi kerak,

tovarga talab yo'qligining oldini qanday olishi kerak, firma mahsulotiga iste'molchilar diqqatini qanday jalb qilish mumkin – shu va boshqa ko'p savollarga javobni aynan tovar menejmenti beradi. Agar firma menejeri bozordagi vaziyatni o'z ichki hissiyoti bilan oldindan bilsa, to'g'ri yechimlarni mohirona tanlashdan holi bo'lmasa va raqobatbardoshlikni boshqarish san'atini bilib olgan bo'lsa, korxona bozorda muvaffaqiyat qozonishi aniqroq bo'ladi. Firma ishlab chiqarayotgan tovar raqobatbardosh bo'lsa, kompaniyaning asosiy maqsadi – yetarli darajada foyda ko'rish va bozor munosabatlari sharoitlarida yuqori cho'qqilarga chiqishini ta'minlashdir. Tovarlar raqobatbardoshligini samarali boshqarish ayniqsa, o'z mahsuloti bilan tashqi bozorga chiqmoqchi bo'lgan korxonalar uchun muhimdir. Bu masalani amalga oshirish ulardan iste'molchilarga peshqadam firmalar taklif etayotganlardan yaxshiroq tovarni, ularni sotish va xizmat qilish shartlarini taqdim etishni talab qiladi. Bu faqat raqobatbardoshlik mexanizmlarini, o'z tovarlari raqobatbardoshligini ko'tarish usul va yo'llarini sinchkovlik bilan o'rganish asosida amalga oshirilishi mumkin.


1.3. Korxonalarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mahsulot sifatini oshirish usullari

Korxona faoliyatini modernizatsiyalashning asosiy maqsadi – moddiy-texnika bazasini takomillashtirish va ishlab chiqarishni tashkil etishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirishdan iborat. Biroq, e'tibor qaratish lozimki, modernizatsiyalash jarayoni ko'p qirrali va turli natijalarni keltirib chiqarish imkoniyatga ega. Shu bilan birga modernizatsiyalash chora-tadbirlari turli-tuman bo'lib, ularni qo'llashning muqobil yo'llari mavjud. Muayyan chora-tadbirni ustun ravishda qo'llash imkoniyati va zarurligi uni qo'llashdan olinadigan natijaga bog'liq. Bu natijalarni oldindan hisob-kitob qilish, ularni o'zaro taqqoslash va shu asosda eng ahamiyatlisi tanlab olish pirovardida modernizatsiyalashning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bundan ko'rinadiki, modernizatsiyalash chora-tadbirlarining muqobilligi va natijalarining turlichaligi

mazkur jarayon samaradorligini baholash zaruratini keltirib chiqaradi.

Modernizatsiyalash jarayonlari samaradorligini baholash zarurligi, shuningdek, tarmoq modernizatsiyalash dasturlarining to'g'ri shakllantirilganligi va ilmiy asoslanganligini aniqlash orqali ham namoyon bo'ladi. Odatda, modernizatsiyalash dasturlari tarmoq va soha mutasaddi idoralari tomonidan shakllantirilib, u o'z ichiga tarmoq, korxona va tashkilotlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni oladi. Biroq, muayyan sharoit va davrda tuzilgan dasturlar vaqt o'tishi bilan o'zgarish xususiyatiga ega. Ayniqsa, uzoq muddatli dasturlarga oraliq o'zgartirish va tuzatishlarni kiritib boorish ularning yanada takomillashuviga hamda samaradorligining oshishiga olib keladi ishlab chiqarishni modernizatsiyalash samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan asosiy vazifasi – korxona faoliyatini uni moliyaviy resurslar bilan ta'minlovchi aksionerlar manfaatlarini amalga oshiradigan tarzda tashkil etish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida modernizatsiyalash jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholashda mazkur jarayonni amalga oshirishning mantiqiy jihatdan ketma-ketligini aniqlash va uslubiy asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.




5-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash jarayonlari boshqaruv samaradorligini baholash ketma-ketligi¹⁴.

¹⁴ Safarov N. Ch. Xalqaro transport xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari: avtoreferati Toshkent-2012. 9-b.

Ishlab chiqarish korxonalarni modernizatsiyalash jarayonlari boshqaruv samaradorligini baholash ketma-ketligida dastlabki bosqichni ishlab chiqarish korxonalarda modernizatsiyalash jarayonlarini boshqarish siklini belgilab olish va ularning to'g'ri yo'lga qo'yilganligini baholash tashkil etadi. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalarda modernizatsiyalash jarayonlarini boshqarish siklining quyidagi ko'rinishini tavsiya etamiz (5-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, korxonalarda modernizatsiyalash jarayonlarini boshqarish siklini 6 fazadan iborat deb belgilab olingan (6-rasm.). O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, ushbu bosqichlar soni va ularning mazmuni mazkur jarayonni tahlil etish murakkablik darajasiga qarab o'zgarishi mumkin. Bu borada eng muhimi – fazalar orqali ifodalanuvchi jarayonlarning boshqaruv mazmunini to'liq qamrab olishi va namoyon etishidadir.



6-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarda modernizatsiyalash jarayonlarini boshqarish sikli¹⁵.

1-faza: Korxonalarni modernizatsiyalash imkoniyatlarining tahlili. Bunda asosan quyidagi ikkita jihatga e'tibor qaratiladi:

¹⁵ Amonboyev M.R. Korporativ korxonalar faoliyatini innovatsion boshqarish sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari.

- korxona bo'yicha modernizatsiyalash imkoniyatlarini baholash;
- mahsulot tayyorlash yaxlit texnologik jarayoni bo'yicha korxonaning modernizatsiyalash imkoniyatlarini baholash

2-faza: Modernizatsiyalash jarayolarini rejalashtirish. Rejalashtirishdan maqsad – modernizatsiyalash jarayonlarini uzilishlarsiz va o'zaro muvofiq holda amalga oshirish.

3-faza: Modernizatsiyalash jarayonini tashkil etish. Tashkil etish – rejalashtirgan vazifalarning amaliy harakatini ta'minlashga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar majmuidir.

4-faza: Modernizatsiyalash jarayonlarini motivatsiyalash. Bu bosqichda motivatsiyalash dividend siyosati, moliyaviy natijalarda ishtirok etish, mukofotlash tizimi va boshqa iqtisodiy vosita hamda dastaklardan foydalaniladi.

5-faza: Modernizatsiyalash jarayonlarini nazorat qilish. Nazorat – boshqaruvning tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. Umumiy nazoratni korxonaning boshqaruvi amalga oshiradi. Joriy nazorat esa asosan texnik va texnologik jarayonlar nazoratidan iborat bo'lganligi sababli, asosan korxonaning modernizatsiyalash bo'yicha ma'sul bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

6-faza: Modernizatsiya jarayonlarini tartibga solish. Bu o'rinda tartibga solish mazkur jarayonlarning boshqarish nuqtai nazaridan qoraladi. Modernizatsiyalash jarayonlariga puxta tayyorgarlik ko'rilishiga (masalan, korxonada modernizatsiyalash dasturining ishlab chiqilishi, ekspertizadan o'tkazilishi va qabul qilinishi, korxona va korxonalararo darajada modernizatsiyalash bo'yicha aniq vazifalarning belgilab berilishi va boshqalar) qaramay, uning murakkab tavsifi va xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan joriy tuzatish va o'zgartirishlarni kiritib boorish taqozo etiladi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga qat'iy talablar qo'yadi, chunki hozirgi zamonda har qanda korxonaning omon qolishi, uning tovarlar va xizmatlar borasidagi mustahkam mavqei raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Raqobatbardoshlik ikki ko'rsatkich - baho va mahsulot sifatining darajasi bilan bog'liqdir.

Ishlab chiqarishni erkinlashtirish ikkinchi omil birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Chunki sifat korxonaning obro'si va yanada gullashi hamda sifatni bshqarish -, barcha xodimlar, rahbardan tortib aniq ish bajaruvchi uchun ishning al'fa va va omegasi, ya'ni avvali va oxiridir. Shu tufayli davlatning iqtisodiy, shu jumladan, ishlab chiqarish miqyosida sifat masalasi muhim o'rin egallaydi. Mahsulot sifatini oshirish – bu, oqibat-natijada uning miqdori, resurslarni tejash, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni to'laroq qondirish masalasi hisoblanadi. Ya'ni, har qanday mahsulot eng yuqori texnikaviy-iqtisodiy va estetik hamda boshqa bir qator talablarga muvofiq kelishi, jahon bozorida raqobat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar sifat muammosi hal etilmasa, ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi.

Mahsulot (ish, xizmat) sifati – muayyan shu mahsulotning har tomondan foydalanishga mukammal ekanligini belgilovchi xususiyatlar yig'indisidir.

Mahsulot sifati – bu, shu mahsulotdan ma'lum maqsadda foydalanish uchun uning yaroqlilik darajasi, mahsulotning xalq xo'jaligi ehtiyojlarini, iste'molchilarning talab va didlarini qondirish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarish mahsuloti sifati tarmoqning, korxona(firma)ning faoliyatini rejalashtirishda va uni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unda mehnatni tashkil qilishm uning jihozlanish darajasi, mutaxassisliklarining malakasi, ishlab chiqarishni boshqarishning holati ifodalanadi. Mahsulot sifati iqtisodiy jihatdan iste'mol qiymatining o'lchovi va foydalanish darajasi ko'rinishida naoyon bo'ladi.

Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya bo'lib, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning munosabatlarini, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, reja topshiriqlarini bajarish hamda mahsulotga baho belgilash bo'yicha korxonaning davlat bilan munosabatlarini ifoda etadi. Undan tashqari, mahsulot sifati korxonalar o'rtasidagi sifatli mahsulot uchun moddiy rag'batlantirish va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilgani uchun moddiy javobgarlikka tortish bo'yicha munosabatlarni ifodalaydi.

Mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yoʻnalishlari.

Mahsulot sifati uni yaratish jarayonida ta'minlanadi va unga bir necha omillar ta'sir o'tkazadi. Bular 3 guruhga bo'linadi:

- material-texnik omili.
- ma'muriy omil.
- inson omili.

Bu uch omil sifatni ta'minlashda kerakli shart deb hisoblanadi. Bularning ichida eng asosiysi inson omili va sifat muammosini yechishda avvalom bor inson omilidan - xodimlarni mehnat sifatiga bo'lgan qiziqishini oshirishdan boshlash kerak. Sabab shundaki qiziqishi yo'k ishchi yaxshi, zamonaviy dastgoxlarda ham yaxshi ishlamaydi, qiziqishi bo'lsa yomon sharoitlarda ham mahsulot sifatini oshirishga harakat qiladi.

Mahsulot sifati texnika taraqqiyotining sur'atlarini, mehnat unumdorligini va shu orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ta'riflovchi iqtisodiy kategoriyadir. Mahsulot sifatni muntazam ravishda yaxshilash iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xalq faravonligini o'stirishning asosiy omillarida biri hisoblanadi.

Mahsulotning miqdori va sifati o'zaro dialektik bog'liqdir. Yuqori sifatli mahsulot sifatsiz tayyorlangan mahsulotga nisbatan jamiyat ehtiyojlarini yuqoriroq darajada qondirishga qodir. Demak, mahsulot sifatini oshirish ishlab chiqarish hajmini qo'shimcha harajatlarsiz oshirish, demakdir. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati, va miqdorining o'zaro bog'liqligi mahsulot sifatni oshirish, jamiyat ehtiyojlarini to'la qondirishga imkon beradi, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchi kuchlari o'sishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Sifatli mahsulot doimo o'z xaridorlariga ega. Hozirgi davrda mazkur talab qondirilgandagina mahsulotni dunyo bozoriga chiqarish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatga eksportdan keladigan valyuta tushumini ko'paytirish orqali yangi texnika va texnologiyalar sotib olish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, samaradorligini oshirish imkonini beradi. Yuqori sifatli mahsulot

ishlab chiqarishga va uni sotishga erishgan korxona(firma) o'z ishlab chiqarish salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday subyektlarning ko'payishi esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishi esa, uning aholisini daromadlari va demak, turmush darajasining yuksalishiga olib keladi. Natijada sifatli mahsulot va yuqori darajada ko'rsatilgan xizmatlarga talab ko'payadi. Ya'ni, sifatli mahsulot o'zining sifatli iste'molchisini yaratadi. Pirovardida jamiyatda yanada yuqoriroq darajada iqtisodiy o'sish ta'minlanadi.

Mahsulot sifatni yaxshilashga oid vazifalar va tadbirlar tuzilayotganda ularni amalga oshirish imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligi texnikaviy-iqtisodiy jihatdan asoslanadi.

Buning uchun quyidagilar asos qilib olinadi:

- ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga bo'lgan talablar va kelgusida uni takomillashtirish imkoniyatlari;
- mahsulot sifat darajasini baholash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotga uchragan nuqsonlarni yuzaga chiqarish va tahlil qilish;
- laboratoriyadan o'tkazilgan sinov natijalari, iste'molchilar tomonidan yuborilgan norozichilik hujjatlari, texnikaviy nazorat vama'lumotlar;
- ilg'or korxonalarning mahsulotlari bilan taqqoslash.

Mahsulot sifatni yaxshilashga oid tadbirlar majmuasiga quyidagilar kiradi:

- mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy tajriba va loyihalashtirish ishlari hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar;
- ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirishga oid tadbirlar;
- xomashyo va materiallar sifatni oshirish bo'yicha ta'minlovchilarga qo'yiladigan talablar;
- mahsulot sifatini oshirish bo'yicha o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba va loyihalashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot, tajriba va loyihalashtirish yuzasidan ilmiy-tekshirish, loyihalashtirish tashkilotlariga beriladigan topshiriqlar;

- texnikaviy hujjatlarni yaxshilash tadbirlari;
- rioya qilishni tekshirish sharoiti, ishlab chiqarishni o'lchov asboblari bilan taminlash, ularning aniq ishlashini kuzatib turish tadbirlari;
- standartlarni o'zlashitirish, ularga rioya qilish, buyumlarni unifikatsiyalashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, nuqsonlarning oldini olish va iste'molchilar tomonidan bo'ladigan noroziliklarni kamaytirish bo'yicha tadbirlar.

Mahsulot sifat darajasini oshirish yo'llaridan biri uning texnikaviy darajasi va sifatini oshirishdir. Buning uchun:

- eng yangi jahon yutuqlari asosida mahsulotni ishlab chiqishda prinsip jihatdan yangi loyiha va konstruksiyalardan;
- mahsulotni ishlab chiqishda yangi texnologik, tashkiliy-texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy yechimlardan foydalanish zarur.

Mahsulot yuqori sifatining poydevori prinsipial jihatdan, yangi texnologiyalar, yuqori samarali va chiqindisiz jarayonlar, yangi konstruksion materiallar va boshqalardir. Mahsulot sifati qanchalik yaxshi bo'lsa boshqa teng sharoitlarda uning mavjud ehtiyojlarini to'laroq qondirish qobiliyati ham shunchalik to'laroq bo'ladi.

Mahsulot sifatiga va uning texnikaviy xususiyatlariga baho berish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi:

Iste'mol qilish xususiyatlari bo'yicha talabni qondirish ko'rsatkichlari. Bunday ko'rsatkichlar mahsulotdan tayinli, belgilangan ravishda foydalanish natijasida kerakli samarani tavsiflaydi. Ishlab chiqarish – texnik vazifani bajaruvchi mahsulot uchun mehnat unumdorligini ko'rsatkichi xizmat qilishi mumkin. U baholanayotgan mahsulot yordami bilan qanday hajmdagi mahsulotni tayyorlash yoki ma'lum davr ichida qanday hajmdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishi mumkinligini ifodalaydi.

Mustahkamlik ko'rsatkichlari – buyumlarning buzilmasligi, yaxshi saqlanishi, ta'mirlashga qulayligi, shuningdek, chidamliligidir. Mashina va o'lchov asboblarning sifati ularning mustahkamligiga va uzoq ishlash

qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Har bir buyumning mustahkamligi mo'ljallangan muddatda, o'z xizmat parametrlarini o'zgartirmay, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni boshqarish, vositaning, ya'ni qurolning ishlash muddati – mo'ljallangan vaqtda ishlash qobiliyatini o'zgartirmaslik xususiyatidir.

Texnologik ko'rsatkichlar mahsulotni tayyorlash va ta'mirlash jarayonida yuqori mehnat unumdorligini ta'minlash uchun konstruktor-texnologik yechimlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Aynan texnika va texnologiya yordamida mahsulot ishlab chiqarishning ommaviyligi, material harajatlarini, mablag'lar, mehnat va vaqtni oqilona taqsimlash ta'minlanadi

Standartlashtirish va unifikatsiyalash ko'rsatkichlari - mahsulotning standartli, unifikatsiyalashgan va original, ya'ni ajoyib, ajralmas qismlar bilan qondirilganligi, to'ydirilganligi, shuningdek, boshqa buyumlarga nisbatan unifikatsiyalashganlik darajasi. Ular traktorni boshqarish uchun kerak bulgan kuchlar, muzlatgichda dastakning joylashishi, harorat, namlik, yorug'lik, shovqin, vibratsiya, nurlanish, yonuvchi maxsulotlarda uchar gazi va suv bug'ining yig'ilishi bo'lishi mumkin.

Ergonomik ko'rsatkichlar insonning buyum bilan munosabatini va bu buyumdan foydalanishda ro'y beradigan gigiyenik, fiziologik va ruhiy xususiyatlar majmuini aks ettiradi.

Estetik ko'rsatkichlar buyumlarning badiiy-konstruktorlik xususiyatlarini ifodalaydi. Ular buyumning tovar qiyofasi jonliligini, shaklining ma'qulligini, kompozitsiyaning butunliligini, mukammal bajarilganligini va barqarorligini tavsiflaydilar.

Transportabellik kursatkichlari maxsulotning tashish uchun moslashganligini ifodalaydi.

Patent-huquqiy ko'rsatkichlar mahsulotning patentli himoyasini va patentli sarxilligini (asilligini) tavsiflaydi va raqobatbordoshligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Patent-xuquqiy ko'rsatkichlarni aniqlashda buyumlarda yangi texnik omillar borligini, shuningdek, mamlakatda patentlar bilan himoyalangan yechimlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Ekologik ko'rsatkichlar atrof-muhitga xavfli ta'sir ko'rsatish darajasi. U mahsulotni ekspluatatsiya qilish yoki iste'mol qilishda yuzaga keladi. Masalan, zararli qotishmalarning bo'lishi, mahsulotni saqlash, tashish va iste'mol qilishda zararli qismlar, gazlar va nurlarni chiqarish mumkinligi.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari - xaridor va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xavfsizligi uchun mahsulot xususiyatlarini tavsiflaydi, ya'ni mahsulotni montaj qilish, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash, tashish, iste'mol qilishda xavfsizlikni ta'minlaydilar.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan ko'rsatkichlarning yig'indisi mahsulot sifatini tashkil etadi. Buyum mustahkam (pishiq), estetik jihatdan ko'zni qamashtiradigan, uz vazifasini yaxshi bajaradigan bo'lishi lozim. Lekin, yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlardan tashqari buyumning bahosi ham muhim. Chunki iqtisodiy optimal sifat masalasi baho bilan chambarchas bog'liqdir. Xaridor buyum sotib olganda buyum bahosi u ega bo'lgan xossalar to'plamini qoplashini bilish uchun ularni doimo taqqoslaydi.

Mahsulot sifati muammosiga tegishli masalalardan biri standartlashtirishdir. Standartlashtirish - standartlarni belgilash va qo'llash jarayoni. U normal ijodiy faoliyat bulib, sifatning optimal kursatkichlarini, mahsulotning parametrik qatorlarini, nazorat qilish, sinash usullari va hokazolarni ishlab chiqishni va qat'iy belgilashni o'z ichiga oladi.

Standartlashtirishning eng muhim ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning rivojlanish sur'ati va darajasiga zaruriy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun esa standartlash fan va texnika hamda amaliy tajribalarning oxirgi yutuqlariga tayanadi.

O'zbekistonda standartlashtirish milliy iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etish bilan chambarchas bog'liq. Standartlashning asosiy, eng muhim vazifasi xalq xo'jaligi, aholi, mamlakat mudofaasi uchun tayyorlanadigan mahsulotlarga yuqori talablar belgilovchi normativ-texnik hujjatlar tizimini yaratish hamda ushbu hujjatdan to'g'ri foydalanishni nazorat qilishdan iborat.

2-BOB. “AGRO MASH” OAJNING BOSHQARUV FAOLIYATI VA MOLIYAVIY-IQTISODIY KO’RSATKICHLARI TAHLILI

2.1. “AGRO MASH” OAJning boshqaruv faoliyati tahlili

“Agro-Mash” OAJ ilmiy-texnik konstruktorlik ishlarini bajarib, loyihalashtirish va maxsus texnik va nostandart uskunalar, qurilmalar tayyorlash, paxtachilik uchun yangi va zamonaviy mashinalar yaratish va ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini qayta qurollantirish, xalq ist'emol tovarlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

- to'liq nomi “Bosh Maxsus Konstruktorlik Byurosi – Agromash” Ochiq Aksiyadorlik Jamiyati;

- qisqartirilgan nomi “BMKB-AGRO MASH” OAJ

1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, u 1995-yilda ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida paxta mashinalari ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan DQKB (Davlat qishloq konstruktorlik byurosi)dan ajralib chiqdi. 90-yillardan boshlab byuro paxtachilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini texnikalar bilan ta'minlashda ilmiy-tadqiqot va tajriba –konstruktor ishlarini olib bormoqda. Faoliyat yo'nalishi ilm-fan hisoblanadi.

Hozirgi kunda konstruktorlik byurosi innovatsion va ilmiy-tadqiqot loyihalarini davlat ilmiy-texnik dasturlashtirishga kiritilgan tanlovlarda yutish orqali amalga oshiradi. 1946-yilda tashkil etilganidan boshlab tashkilotning aqliy mulki (mualliflik huquqlari, patentlari, ishlab chiqarish namunalari, hujjatlr va b.) tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini olib borishga yordam beradi. Jamiyat –ochiq aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

Mulkiy shakli – 144 aksiyador;

Mulkning boshlang'ich qiymati – 5256,4mln.so'm

Ustav kapitali – 667,4mln.so'm

OAJ ning 36875 dona aksiyasi 667,4 mln.so'mga baholangan va butunlay sotilgan. Tashkilotning aksiyanerlari bo'lib:

- Davlat 12353 dona aksiyaga yoki ustav fondan 33,5%ga;

- Ustav fondning 34,62 %i yoki 12766 dona aksiyaga cheklangan

javobgarlik bilan “ASIAN NATURAL FOOD” kompaniyasi egalik qiladi;

- 16,8 % ustav fondidan yoki 6196 dona aksiyaga yopiq aksiyadorlik jamiyati “AGRIMONDO” egalik qiladi;

- Jismoniy shaxslar ustav fondning 15,08 %i yoki 5560 dona aksiyasiga egalik qiladi;

- Ustav fond jamg'armasida 667 437 500 (olti yuz oltmish yeti million to'rt yuz o'ttiz yeti ming besh yuz) so'm mavjud bo'lib,

- 1 dona aksiyaning narxi – 18100 so'm.

Jamiyatning tashkiliy shakli:

- Jamoaning yuqori boshqaruv organi – aksiyadorlik kengashi;

- Jamoaning hozirdagi boshqaruvi – kuzatuv kengashi va director.

Jamoa tashkilotining asosi va shartlari:

Tashkilot ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida 1995-yilning 24-iyulida tashkil topgan, 2003-yil 12-iyunda qaytadan, tashkilotning yangi nizomi 2010-yilning 22-martida ro'yhatdan o'tgan. Davlat ro'yhatdan o'tgan joyi –Toshkent shahri, Hamza tumani hokimiyati. Ochiq aksiyadorlik jamiyatining yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sultonali Mashxadiy ko'chasi, 210-uy, pochta indeksi: 100007. “BMKB-AGRO MASH” OAJ Davlat Mulk qo'mitasining Toshkent shahri Boshqarmasining 1994-yil 7-dekabrdagi N 1129 PO sonli buyrug'i asosida tashkil etilgan. Umumiy maydoni 2.8 ga.

Jamiyat faoliyatining predmeti¹⁶ ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish, namunalarni tayyorlash, sinovlar o'tkazish va mahsulotlarni sertifikatlash, qishloq xo'jalik mahsulotlari va boshqa texnikalarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. BMKB – Agromash OAJ tuzilmasida qishloq xo'jaligi sanoati mashinalari ishlab chiqariladi, faoliyati davomida texnik vositalarning o'nlab turlari ishlab chiqildi: kartoshka, sholi, qand lavlagi va o'rmon xo'jaligiga ishlov berish uchun mashinalar kompleksi ishlab chiqildi.

Jamiyatni tuzishdan maqsad daromad olish maqsadida mahsulotlar va

¹⁶ “BMKB-Agro Mash” OAJ ning nizomi va biznes reja ma'lumotlari asosida yozilgan.


tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishdir.

Jamiyati faoliyatining asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- loyiha, loyiha-texnologik hujjatlarni ishlab chiqish;
- konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish, mahsulotlarning namunalarini tayyorlash, sinash va sertifikatlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini oib borish;
- qishloq xo'jalik va boshqa texnikalarni, shuningdek nostandart jihozlarni ishlab chiqarish;
- texnikaga servis xizmatini ko'rsatish va ta'mirlash;
- ishlab chiqarish-texnik maqsadlardagi mahsulotlarni va xalq iste'moli mollari ishlab chiqish, ishlab chiqarish, sotish va servis xizmatini ko'rsatish;
- ulgurji savdo.

BMKB AGRO-MASH OAJ ning boshqaruv tuzilmasi quyidagi rasmda berilgan (1-rasm.).

Tadqiqot-Konstruktorlik bo'limi yuqori texnik bosqichda mashinalarga konstruktorlik hujjatlashtirish konstruktorlik ishlarini olib boradi. Bo'limning asosiy vazifasi bo'lib ilm-fanning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda paxta va qishloq xo'jaligi ishlarni to'liq mexanizatsiyalash uchun mashinalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Konstruktorlik bo'limi boshqa korxona va tashkilotlar mutaxassislari bilan yangi texnika yaratish masalalari bo'yicha maslahatlashadi, ratsionalizatorlik takliflari va ixtirolar yaratish bo'yicha taklif va mulohazalar olib boriladi, ishlab chiqarish zavodlarida mahsulotning tayyorlanish jarayonlarida qatnashadilar, ishlab chiqilayotgan konstruktorning standartlashishi va birxillashishini oshirish bo'yicha ishlarni olib bormoqda.



7-rasm. BMKB AGRO-MASH OAJ ning boshqaruv tuzilmasi.

Konstruktorlik byurosi tashkil topganidan buyon o'nlab tuproqni ekish oldidan tayyorlash uchun, hosilni terib olish uchun, xalqaro ishlov berish uchun, o'g'itlarni ekish uchun, kimyoviy himoya va g'o'zani defoliatsiya qilish uchun, paxtani va ko'rakni terish va dalalarni tozalash texnik vositalarni ishlab chiqqan. Majmuada kartoshka, guruch, qand lavlagi va o'rmon xo'jaliklari uchun ham mashinalar ishlab chiqarilgan

Tarmoq ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi-ilmiy tadqiqotlarni resuslarni jamg'arish va energiya ishlab chiqish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida ekologik sof texnika va texnologiyalarni o'tkazadi.

Ishlab chiqarish bo'yicha ilmiy tajribaga oid namunalar bo'limi- zaruriy uskunlar bilan ta'minlangan, nafaqat tajribali namunalar yaratishga imkon beradi, balki mashinalarning kam miqdordagi seriyalarini ishlab chiqaradi. Bo'lim xodimlari keng ixtisoslashgan mutaxassislar hisoblanadi, bu ularga bir nechta kasblarda ishlash va mehnat unumdorligini oshirishga imkon beradi. Ishlab chiqarish jarayoni qismlar asosida konstruktorlik bo'limida ishlab chiqiladi hamda buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan namuna asosida olib boriladi.

Agrotexnik-tadqiqot markazi- 10.09.2007-yilda akkreditlangan va o'z ishlarini O'zbekiston Respublikasi akkreditatsiya tizimi doirasida quyidagi talablar asosida qishloq xo'jaligi texnikalarini sinovdan o'tkazadi: tadqiqiy, oldindan, qabul qiluvchi, davriy, sohalari bo'yicha, nazorat, tezlashtiruvchi, qisqartiruvchi hamda ishonchlilik va boshqalar. Talablarni hisobga olgan holda asosli hujjatlar, milliy tizimlar sertifikatlar va akkreditatsiyalar tadqiqotlar o'tkaziladi. Agrotexnik-tadqiqot markazi (ATM) sinovlarni o'tkazish sohasida malakali xodimlarga ega, sinovlarni o'tkazishda zarur bo'lgan o'lchov vositalari va uskunalar bilan ta'minlangan. 2013-yilda o'tkazilgan O'zstandart inspeksiyasi nazoratidan so'ng ATM faoliyati 2016-yilga qadar uzaytirildi.

2.2. “AGRO MASH” OAJda boshqaruv jarayonlarini rivojlantirish

Boshqaruv butun boshqaruv tizimining uzluksiz amal qilishi jarayonini ifodalaydi. U mehnat jarayonining barcha xususiyatlariga ega. Umuman boshqaruv jarayonini texnologiya (qanday amalga oshiriladi), tashkil etish (kim va qanday tartibda) nuqtai nazaridan tavsiflash mumkin. Boshqaruv jarayoni mazmunining uch jihatini ajratish mumkin: texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy texnikaviy jihatdan bu mahsulot ishlab chiqarish, ishlab chiqarishda – bu ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni, ya'ni bo‘linma, korxonalar o‘zaro ta'sirini boshqarish, iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarish, ish kuchi va butun iqtisodiy munosabatlar tizimiga rahbarlik qilish, ijtimoiy jihatdan – bu mehnat jamoasi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, insonni tarbiyalashdir. Boshqaruv jarayoni texnologiyasi boshqaruv xodimlari tomonidan bajariladigan operatsiya va amallardan iboratdir.

“BMKB Agro-Mash” OAJ da boshqaruv jarayoni rahbar va boshqaruv apparatining qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun kishilarning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha maqsadli harakat qilish hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirish tartibiga ko‘ra uni quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin: maqsad, vaziyat, muammo, qaror qabul qilish. Har bir ta'sir etishni amalga oshirishdan avval uning maqsadi aniqlanishi lozim, chunki boshqaruv ma'lum maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi. Boshqaruvning keyingi bosqichi boshqaruv jarayonidagi vaziyatni tahlil etishdan iborat. U tizimning holatini baholash, uni yaxshilash yo‘llarini izlash yoki undagi salbiy hislatlarni bartaraf qilish bilan bog‘liq ishlarni tavsiflaydi. Muammo bosqichida tizimning hozirgi holatining uning rivojlantirish maqsadiga nisbatan u qarama - qarshiliklarini aniqlash ko‘zda tutiladi. Qaror qabul qilish bosqichi rahbarning amalda tashkiliy faoliyatiga o‘tishini ifodalab, qaror qabul qilish bilan boshqariladigan tizimga ta'sir o‘tkazila boshlanadi.

Boshqaruv jarayonini, shuningdek, quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin: maqsad qo‘yish, axborot faoliyati, taxliliy faoliyat, boshqaruv tizimida tashkiliy amaliy faoliyat va harakatlar variantlarini tanlash. Boshqaruv jarayoni bosqich va davrlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi sxemada aks ettirish mumkin.


Boshqaruv operatsiyalari - rahbar va boshqaruv apparatining oddiy harakatlari bo'lib, ular tartibi va birikishi natijasida boshqaruv jarayoni tashkil topadi. Masalan, taxliliy faoliyat uchun korxonaning yillik va oylik hisobotlarini olish, ular tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni boshqaruv jarayoniga tatbiq qilish lozim. Boshqaruv jarayonini amalga oshirish vositalariga eng avvalo axborotni kiritish lozim. Boshqaruv operatsiyalarining katta qismi axborot bilan ishlashdan iboratdir. Boshqaruv apparati ishida keng qo'llaydigan texnika vositalari ham shular jumlasiga kiradi. Bular axborot olish va qayta ishlash vositalari va an'anaviy texnika vositalaridir. Boshqaruv operatsiyasini amalga oshirish usullari - axborot-taxlil va tashkiliy faoliyatdir. Boshqarish uchun faqat nimani qanday qilishni hal etish emas, balki tashkil etish, qiziqtirish, ishontirish, tushuntirish, nazorat qilish ham zarur. Ayni shu operatsiyalar yig'indisidan rahbarning tashkiliy faoliyati tashkil topadi.

Boshqaruv jarayonini tashkil etishda biznes-reja va ta'minot, moliyalashtirish va biznes-reja; narxni belgilash va kredit berish funksiyalarini bog'lashni ta'minlash, boshqaruv tizimi ayrim unsurlarini (maqsad- usul, maqsad va kadrlar, qarorlar va usullar, usullar va tarkib) muvofiqlashtirish, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, fan-texnika yutuqlarini joriy etishni ta'minlash zarur.

Korxona miqyosida boshqaruvning quyidagi maxsus vazifalarini ko'rsatish mumkin:

- asosiy ishlab chiqarishni boshqarish;
- yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish;
- maxsulot sifatini boshqarish;
- mehnat va ish xaqini boshqarish;
- kadrlar, ta'minot, moliya va kredit, jamoa ijtimoiy rivojlanishini boshqarish;
- marketingni boshqarish.

Mahsulotning katta qismi asosan ichki bozorda sotiladi. Jamiyatning majmuaviy tizimini yaratish maqsadida mahsulotlar quyidagi tarmoqlar ichida marketing tadqiqotlari o'tkaziladi: aralashma kanallar, reklama, servis xizmatlari va boshqalar. "BMKB-Agromash" OAJ qishloq xo'jaligi texnikalarini kam miqdorda va kultivatorli qo'shimcha qismlar va boshqa turdagi mashinalarni sotadi (8-rasm.).



8-rasm. Marketing bozorida xizmat ko'rsatish va tovarlar ishlab chiqarish konsepsiyasi¹⁷.

Mahsulotlar mustaqil, hududlar va MTP tizimi orqali, shartnomalar tuzilgan tuman texnik markazlari sotiladi. Iste'molchilarning talabiga ko'ra qishloq xo'jaligi mashinalarini sozlash va modernizatsiya qilish, barcha turdagi tadqiqot xizmatlarini olib boorish, bundan tashqari qishloq xo'jaligi texnikalarini ekpluatatsiya qilish va sozlash bo'yicha mutaxassislarni o'qitish imkoniyatlariga ega.

2.3. “AGRO MASH” OAJ ning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

“AGRO MASH” OAJ ning 2013-yil 12 oylik ishlar hajmi – 1928,5 mln.so'm¹⁸, o'rtacha ish haqi – 815,8 ming so'm, 2013-yil 12 oylik soliq to'lagandan keyingi foyda– 5,0 mln.so'm

Asosiy fondning umumiy qiymati – 4868,7 mln.so'm;

Debitorlik qarzdorlik 1.01.2014y. – 218,59 mln.so'm;

Kreditorlik qarzdorlik 1.01.2014-y. – 345,133 mln.so'm;


To'lovlilik koeffitsienti – 5,14; Xususiy aylanma mablag'lar ta'minlanganlik koeffitsienti– 0,8; Rentabellik koeffitsenti – 0,02.

¹⁷ “BMKB-Agro Mash” OAJ ning nizomi va biznes reja ma'lumotlari asosida yozilgan.


¹⁸ “BMKB-Agro mash OAJ” ning biznes reja va ustav ma'lumotlari asosida yozilgan.

“BMKB AGRO MASH” OAJ ning moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkichlari

Ko’rsatkichlar	2012-yil					2013-yil					2014-yil				
	Jami	1	2	3	4	Jami	1	2	3	4	Jami	1	2	3	4
Mahsulot sotishdan tushgan tushum	1580,1	332,7	420,3	358,3	468,8	1913,4	391,9	503,2	511,9	506,4	2061,6	415,9	561,8	584,8	499,1
Qo’shilgan qiymat solig’i	37,6	7,9	12,8	8,5	8,4	70,1	9,1	8,7	35,4	16,9	83,6	10,6	25,6	27,6	19,7
Sotishdan sof daromad	1542,5	324,8	407,5	349,8	460,4	1843,3	382,8	494,5	476,5	489,5	1978,0	405,3	536,2	557,1	479,4
Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	805,3	171,2	236,9	173,0	224,2	996,8	200,0	332,2	226,6	238,0	1092,6	222,9	297,1	309,5	263,1
Mahsulotni sotishdan olingan moliyaviy natija	737,2	153,6	170,6	176,8	236,2	846,5	182,8	162,3	249,9	251,5	885,4	182,4	239,1	247,6	216,3
Davr harajatlari, umumiysi	717,0	152,9	166,8	172,8	224,5	827,8	185,1	160,4	250,3	232,0	872,5	180,5	235,3	243,5	213,2
Ma’muriy harajatlar	412,0	85,8	96,9	101,3	128,0	503,4	110,8	111,3	120,3	161,0	518,8	108,5	138,4	143,4	128,5
Sotish harajatlari	305,0	67,1	69,9	71,5	96,5	324,4	74,3	49,1	130,0	71,0	353,7	72,0	96,9	100,1	84,7
Asosiy faoliyatdan olingan daromad	19,2	0,7	3,8	4,0	10,7	18,7	-2,3	-1,9	-0,4	19,5	12,9	1,9	3,8	4,1	3,1
Sotishdan yalpi moliyaviy natija	1,8	1,8	-	-	-	15,1	6,1	5,0	3,5	0,5	7,2	0,9	2,1	2,5	1,7
Umumxo’jalik faoliyatidan olingan daromad	21,0	2,5	3,8	4,0	10,7	33,8	3,8	6,9	3,1	20,0	20,1	2,8	5,9	6,6	4,8
Soliq to’langungacha bo’lgan foyda	21,0	2,5	3,8	4,0	10,7	33,8	3,8	6,9	3,1	20,0	20,1	2,8	5,9	6,6	4,8
Boshqa soliqlar va to’lovlar	16,7	1,9	2,5	3,0	9,3	28,8	2,6	4,7	2,4	19,1	14,4	2,0	4,2	4,7	3,5
Sof foyda	4,3	0,6	1,3	1,0	1,4	5,0	1,2	2,2	0,7	0,9	5,7	0,8	1,7	1,9	1,3



1-diagramma. Mahsulot sotishdan tushgan tushum¹⁹



2- diagramma. Sotishdan sof daromad


Mahsulot sotishdan tushgan tushum jami 2012-yil bo'yicha 1580,1 mln.so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2013-yilda 1913,4 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lib, 2012-yilga qaraganda 333.3 mln.so'm ortiq tushum bo'lgan, ya'ni 121,0 foizga oshgan. 2014-yilda 2061,6 mln.so'm kutilmoqda. Sotishdan sof daromad esa 2012-yilda 1542,5 mln.so'mni, 2013-yilda 1843,3 mln.so'mdan iborat bo'lgan. 2014-yilda esa sof daromad 1978,0 mln.so'm bo'lishi ko'zda tutilmoqda.

¹⁹ "BMKB-Agro mash OAJ" ning biznes reja va ustav ma'lumotlari asosida yozilgan.

**2014-yilga mo'ljallangan "Agro-Mash" OAJ ning ishlab chiqarish
istiqbollari²⁰**

Ko'rsatkichlar	Jami mln.so'mda	Choraklar bo'yicha ming so'mda			
		1	2	3	4
Ilmiy-texnik mahsulotlar	1560,3	352,4	408,1	418,6	381,2
Boshqa ishlar va xizmatlar	501,3	63,5	153,7	166,2	117,9
Tovar mahsulotlari, hammasi bo'lib	2061,6	415,9	561,8	584,8	499,1

Korxonaning 2014-yilga mo'ljallanga ishlab chiqarish istiqbollari ko'ra Hammasi bo'lib 2061,6 million so'm tovar mahsulotlari ishlab chiqarilishi ko'zda tutilmoqda. Shundan ilmiy-texnik mahsulotlar 1560,3 million so'm, boshqa ishlar va xizmatlar 501,3 million so'mni tashkil qiladi. 2014-yil 1-chorak bo'yicha 352,4 million so'm ilmiy-texnik mahsulotlar, boshqa ish va xizmatlar 63,5 million so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.



3-diagramma. 2014-yil bo'yicha tovar mahsulotlar hajmining taqsimlanishi

2014-yil bo'yicha tovar mahsulotlar hajmining taqsimlanishi, konstruktorlik byurosi 2014-yilda jami 2061,6 mln.so'mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'zda tutmoqda. Ilmiy texnik va tajriba konstruktorlik ishlariga kiruvchi

²⁰ BMKB" Agro-mash biznes reja ma'lumotlari asosida tuzilgan.


konstruktorlik loyihalaridan 1466,3 mln.so'mlik va innovatsion ishlanmalar bo'yicha esa 94,0 mln.so'mlik mahsulot ishlab chiqarishni istiqbolda ko'rsatmoqda. Boshqa xizmatlar va ishlar 501,3 mln.so'mni tashkil qiladi. Ko'rsatkichlardan ham ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarishda ilmiy texnik va tajriba konstruktorlik ishlarini ulushi katta hisoblanadi.

4-jadval

“Agro Mash” OAJ ning xodimlar soni va mehnat haqi harajatlari²¹

Ko'rsatkichlar	Choraklarbo'yicha				Yil bo'yicha
	1	2	3	4	
Miqdor	90	90	90	90	90
Muhandis-texnik ishchilar	50	50	50	50	50
Ishchilar	25	25	25	25	25
Boshqa ishchilar	15	15	15	15	15
Mehnatga haq to'lash uchun harajatlar, mln.so'm	211,6	211,6	228,9	228,9	881,0
Muhandis-texnik ishchilar	127,0	127,0	137,4	137,4	528,8
Ishchilar	63,5	63,5	68,7	68,7	264,4
Boshqa ishchilar	21,1	21,1	22,8	22,8	87,8
Jami:	783,7	783,7	847,7	847,7	815,8

4-jadval bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, ochiq aksiyadorlik jamiyatida hammasi bo'lib 90 ta ishchi xodimlar faoliyat ko'rsatadi. Shundan muhandis ishchilar 50 -55,5 foizni, ishchilar 25-27,8 foizni, boshqa ishchilar 15-16,7foizni tashkil qiladi. Mehnatga haq to'lash bo'yicha harajatlar 881,0 million so'mdan iborat.



4-diagramma. Ishchi xodimlarning ulushi


²¹ “BMKB Agro-Mash” OAJ ning yillik hisobotidan foydalanilgan.

5-jadval

2014-yilda kutilayotgan daromadlar va harajatlar rejasi

mln.so'm

Daromad		Harajatlar	
Ko'rsatkichlar	Summa	Ko'rsatkichlar	Summa
Mahsulot sotishdan tushgan tushum	2061,6	Ishlab chiqarish tannarxi	1092,6
Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar	7,2	Davr harajatlari	872,5
		-ma'muriy harajatlar	518,8
		Asosiy faoliyatdan boshqa harajatlar	353,7
		QQS (NDS)	83,6
		Boshqa soliqlar	14,4
Jami	2068,8		2063,1



5-diagramma. 2014-yilda kutilayotgan daromadlar rejasi.

2014-yilda kutilayotgan daromadlar ko'ra jami 2068,8 mln.so'mlik daromad olish kutilmoqda. Mahsulot sotishdan tushgan tushum 2961,6 mln.so'm ya'ni 72 foizni, moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar 7,2 mln.so'm ya'ni 28 foizni tashkil qilishi ko'zda tutilmoqda. Asosiy daromadi mahsulot sotishdan tushgan tushum hisoblanadi.

6-jadval

2013-2014-yillarda “BMKB Agro mash OAJ” da ma’naviy eskirgan asbob-uskunalar ni zamonaviy asbob-uskunalar bilan almashtirgan holda ularni foydalanishdan chiqarish va yangilashning bo’yicha ma’lumot²²

“O’zagrom ashservis” uyushmasi	Jami 2013-2014- yillarda eskirgan asbob-uskunalar o’rniga almashtiradiganlar soni	shu jumladan:			
		2013-yil		2014-yil	
		Almashtirilgan asbob- uskunalar soni	Qiymat, ming dollar	Almashtirilad igan asbob- uskunalar soni	Taxminiy qiymat, ming dollar
	8	3	38,9	5	55,8

2011-2015-yillarda iqtisodiyotni yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish bo’yicha ishlab chiqilgan dastur muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan “Agro mash OAJ” nin 2013-2014-yillarda ma’naviy eskirgan asbob-uskunalar ni zamonaviy asbob-uskunalar bilan almashtirgan holda ularni foydalanishdan chiqarish va yangilash bo’yicha ishlar olib borilmoqda. Jadvaldan ko’rinib turibdiki, 2013-2014-yillarda eskirgan asbob-uskunalar o’rniga almashtiradiganlar soni 8 tani tashkil qiladi, umumiy qiymatda 94,7 ming dollar mablag’ sarf qilingan. Shundan 2013-yilda 3 ta, 38,9 ming dollarlik asbob-uskuna yangilangan. 2014-yilda esa ko’zlanayotgan mablag’ 55,8 ming dollarlik 5 ta asbob-uskunalar yangilanishi rejaga kiritilgan.

²² I.Karimovning “Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” nomli ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. T.:2013 240-b.

3-BOB. KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI MODERNIZATSIYALASH VA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR VAZIFALARI

3.1. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 24-martda PF-3860 sonli "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni qabul qilingan. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradigan ilg'or zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan samarali rag'batlantirish tizimini yaratish maqsadida:

- xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga besh yil mobaynida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga, yangi texnologik uskunalar xarid qilish, yangi qurilish shaklida ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni qaytarishga, lizing ob'yekti qiymatini to'lashga yo'naltirilgan mablag'lar miqdorida, tegishli soliq davrida amortizatsiya ajratmalarini chiqarib tashlagan holda, ammo soliqqa tortiladigan daromadning 30 foizidan oshmaydigan miqdorda foydadan olinadigan soliq bazasini kamaytirish huquqi berilgan.


- soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladigan yuridik shaxslar uchun besh yil davomida yagona soliq to'lovi to'lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliqqa tortish bazasining 25 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytirgan holda soliq imtiyozlari joriy etilgan.

- texnologik jihozlar xarid (import) qilingan paytdan boshlab uch yil ichida sotib yuborilgan yoki tekinga berilgan bo'lsa, qayd etib o'tilgan soliq imtiyozlarining amal qilishi bekor qilinadi, byudjetga tegishli soliqlar to'lash

bo'yicha majburiyatlar tiklanadi. Texnologik jihozlar xarid (import) qilingan paytdan boshlab uch yil ichida sotib yuborilgan yoki tekinga berilgan bo'lsa, bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar bekor qilinadi va byudjetga bojxona to'lovlari to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklanadi.


Ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida mahsulotning sifati milliy iqtisodiyotlar rivojlanishining asosiy muammolariga aylanmoqda. Barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarda jahon bozorida mahsulotning sifati, raqobatbardoshligini oshirish muammosini hal qilish yo'llari faol izlanmoqda. Jahonning uch yetakchi mintaqasi: AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropa misolida mahsulot sifati uni raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz

AQSH firmalarining dadil fikrlovchi boshqaruvchilari Amerika mahsulotlarining raqobatbardoshlikka erishish uchun uni sifatini oshirish zarurligini anglab yetdilar. Buning uchun quyidagilarni rivojlantirishga qaror qilingan (9-rasm.).



9-rasm. AQSHda mahsulot raqobatbardoshlikka erishish uchun qilinadigan ishlar²³


²³ G'.Hojiahmedova, I.Yaxyayeva. Sifat menejmenti. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.:2012 10-b



10-rasm. Sifat sohasida Amerika tajribasining o'ziga xos xususiyatlari.

Oxirgi vaqtda ko'p AQSH firmalari sifatni boshqarish jarayonlarini takomillashtirishda quyidagi tamoyillarni qo'llaydilar (10-rasm). Firmaning oliy boshqaruv bo'g'inlarining sifatni ta'minlash tizimida oddiy qatnashishdan tizimni bevosita boshqarishga o'tishi, barcha toifali kadrlar malakasini oshirishga diqqatni keskin oshishi AQSH korxonalariga xosdir.

Sifatni nafaqat texnikaviy ko'rsatkichlar orqali, balki narx ko'rsatkichlari orqali o'lchash, natijada "sifat narxi" tushunchasi kiritiladi, u o'z ichiga "nomuvofiqlik narxi" va "muvofiqlik narxi" ni oladi.



11-rasm. Sifatni boshqarishga Yaponiya yondashuvining o'ziga xos

xususiyatlari²⁴.


“Yapon mo’jizasi”ning asosiy g’oyasi – har qanday sohada ilg’or texnologiyalarni qo’llash. Firmalarda hisoblash va mikroprotessor texnikasi, yangi materiallar, loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimlari, to’liq kompyuterlashtirilgan statistik usullar keng tatbiq qilinmoqda (11-rasm).

Yaponiya korxonalarida xodimlar uchun “beshta nol” nomini olgan sifatni ta’minlashda qatnashish dasturi ishlab chiqilgan. U qisqa qoidalar –maqollar ko’rinishida shakllantirilgan:

- yaratmaslik (nuqsonlarning yuzaga kelishi uchun sharoit);
- yubormaslik (nuqsonli mahsulotni keyingi bosqichga);
- qabul qilmaslik (nuqsonli mahsulotni avvalgi bosqichdan);
- o’zgartirmaslik (texnologik tartiblarni);
- takrorlamaslik (xatolarni).

Bu qoidalar ishlab chiqarishni tayyorlash va ishlab chiqarish bosqichlari uchun detallashtirilgan hamda har bir ishchiga yetkazilgan.

Sifat Yevropa davlatlarining raqobatbardoshligini ta’minlash omiliga aylangan. Bunday strategiyani amalga oshirish uchun quyidagilar talab qilingan (12-rasm):yagona qonunchilik talablari (ko’rsatmalar), yagona standartlar, firmaning bozor talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun yagona tekshirish jarayonlari.



12-rasm. Yaponiyada sifatga munosabatning asosiy jihatlari²⁵

Yevropada standartlashtirish bo’yicha ISO 9000 va EN 29000

²⁴ .Hojiahmedova G’, Yaxyayeva I. Sifat menejmenti. Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.:2012 14-b.


²⁵ G’.Hojiahmedova, I.Yaxyayeva. Sifat menejmenti. Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.:2012 15-b.

standartlariga asoslaniladi. Mahsulotlarni SE belgisi bilan tamg'alash joriy qilingan. Sinovlar va sertifikatlashtirish bo'yicha Yevropa muvofiqlashtirish kengashi va sifat tizimlarini baholash va sertifikatlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi tashkil qilingan. Buyuk Britaniya, SHvetsariya, GFR, Avstriya, Daniya, Shvetsiya, Frantsiya, Ispaniya, Portugaliya, Yunoniston, Gollandiya, Belgiya, Finlyandiya, Norvegiya, Irlandiya va Italiyaning sertifikatlashtirish bo'yicha tashkilotlari ushbu qo'mitaga a'zo bo'lgan. 1988-yilning sentabrida G'arbiy Yevropaning 14 yirik firmalarining prezidentlari sifatni boshqarishning Yevropa fondi (SBEF) ni tuzish to'g'risida shartnoma imzoladilar. SBEF ning faoliyat sohasi:

- Umumiy raqobatda ustunlikka erishish uchun sifatni yaratish jarayonini tezlashtirishda G'arbiy Yevropa kompaniyalarining rahbariyatlarini qo'llab – quvvatlash.

- Sifatni yaxshilash va Yevropaning sifat madaniyatini faoliyatida qatnashishda G'arbiy Yevropa hamjamiyatining barcha segmentlarini rag'batlantirish va ularga ko'maklashish.

Raqobatbardoshlikka erishish uchun sifat masalalarini hal qilishga Yevropa yondashuvining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib o'tish lozim (13-rasm).



13-rasm. Raqobatbardoshlikka erishish uchun sifat masalalarini hal qilishda Yevropa yondashuvining o'ziga xos xususiyatlari²⁶


²⁶ G'.Hojiahmedova, I.Yaxyayeva. Sifat menejmenti. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.:2012 17-b

3.2. Korxonalarni modernizatsiyalash sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning ustuvor yo'nalishlari

Har qanday korxona va umuman, iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili – ishlab chiqarish harajatlarini va mahsulot tannarxini kamaytirishdir. Bu milliy ishlab chiqaruvchilar uchun keng bo'lmagan milliy bozorga nisbatan katta jahon bozorlarida o'z joyiga ega bo'lish va uni yanada kengaytirish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirmasdan raqobatdosh iqtisodiyot, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, o'rta muddatli istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishdek strategik vazifani amalga oshirish mumkin emas. Respublikamizda iqtisodiyotining raqobatdoshligini ta'minlash uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini izchil ravishda isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqaligina ta'minlanishi mumkinligini ilg'or mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdi. “Respublika sanoatini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, kompleksi va korxonalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida ” qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi 2010-yil 15-dekabrdagi PQ-1442-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturning amalga oshirilishi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda yangi bosqich hisoblanadi.



14-rasm. Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlash shartlari²⁷

Sifati va narxi bo'yicha jahon bozorida raqobatdosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi mahsulot turlarini ko'paytirish bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-oktabrdagi "Yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1623-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturga muvofiq, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Istiqbolda iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish va bu yo'nalishda maxsus tayyorlashni taqozo etadi. Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashga to'siq bo'layotgan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining past bo'lishiga, tannarxining esa asossiz o'sib ketishiga olib kelayotgan omillarni bartaraf etish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan,

- korxonalarda mavjud asbob-uskunalar hamda texnologiyalarning


²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.-2012.

salmoqli miqdori jismonan yoki ma'naviy jihatdan eskirgani;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlariga mosligini ta'minlash masalasi barcha korxonalarda to'liq hal etilmagani;

- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi qoniqarli emasligi ta'kidlandi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimini joriy etish borasidagi kamchiliklarni bartaraf etish masalasi ayniqsa yengil sanoat, farmasevtika va qurilish mollari kabi iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlarga tegishli ekaniga alohida e'tibor berildi.



15-rasm. Mamlakatimizda raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha ko'zda tutilgan chora-tadbirlar²⁸.

²⁸ .Karimovning "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli ma'ruzasi bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent: "O'zbekiston", 2013. 87-b.

Mahsulot raqobatbardoshligiga erishishda avvalo, mamlakatimizning mahsulot eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ularga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar berish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi Prezidentimiz tomonidan ta'kidlandi va muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun raqobatchilar, iste'molchilar, mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatning qonunchiligi to'g'risida axborot ko'magini berish, davlatlararo kelishuvlarga ko'ra mamlakat korxonalari uchun xorijiy davlatlarda eng ko'p qulaylik rejimini yaratish, bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarini (banklar, transport tizimi va b.) rivojlantirish, mahsulot reklamasiga ko'maklashish kabi chora-tadbirlar ham eksport qiluvchi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Aholining talab va ehtiyojlarining keskin o'sib borishi, shuningdek, jahon bozorida global raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha birinchi navbatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, kichik biznes sub'ektlari mahsulotlarining sifatini oshirish orqali ularning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda ichki va tashqi bozorlarda barqaror talabga ega bo'lgan ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida korxonalarda, jumladan kichik biznes sub'ektlarida xalqaro standartlarni joriy etishga qaratilgan ishlar keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida», «Metrologiya to'g'risida», «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonunlariga muvofiq O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi (O'z SDT), O'zbekiston Respublikasining o'lchashlar biriligidini ta'minlash davlat tizimi (O'z O'DT), O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi (O'z SMT) ni takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida raqobatbardosh va sifatli mahsulot bilan ta'minlash, shuningdek bozor iqtisodiyoti sharoitlarida aholi sog'lig'i, mahsulot xavfsizligi, mamlakatning mudofaa qobiliyati, atrof muhit va ekologiyani muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirilgan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Bizning fikrimizcha, iste'mol bozori talablarining o'zgaruvchanligi sharoitida kichik biznes sub'ektlari mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun sifati xalqaro va milliy standartlarga mos keluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, shu asosda iste'molchilarning qoniqishini ta'minlash, natijada mahsulot sotish bozorlarini kengaytirish va mahsulot eksporti hajmini oshirish lozim.

Shu jihatdan, respublikamizda aksionerlik jamiyatlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligini ta'minlash, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, shakllantirish va sertifikatlashtirishda yuzaga keladigan muammolarni o'rganish, xalqaro standartlar talablari asosida sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish va rivojlantirish talab etiladi.

Ma'lumki, bozor sharoitida ko'pgina ko'rsatkichlar orasida aynan sifat tovarlar va ularni ishlab chiqaruvchilarning saqlanib qolish shartiga, ularning iqtisodiy faoliyatining samaradorligi hamda mamlakat iqtisodiy farovonligi ko'rsatkichiga aylanadi. Marketing nuqtai nazaridan sifat – ma'lum iste'molchining ma'lum ehtiyojlarini qondiruvchi tovarning iste'mol xususiyatlari jamlanmasidir.

Shunday qilib, sifatliroq mahsulot aniq bir tovar yoki xizmatni aniq xaridorlar ko'proq ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini nazarda tutadi. Tovarlarining iste'mol xususiyatlari jamlanmasidan foydalanish darajasi nuqtai nazaridan sifat va foydali xossa tushunchalarini farqlash zarur.

Aksionerlik jamiyatlarida tovar sifat tizimini shakllantirish xo'jalik faoliyatining uchta yo'nalishiga asoslanishi mumkin: sifatni ta'minlash, sifatni boshqarish va sifatni yaxshilash.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarish jarayonlarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish, jahon talablari va standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga ishlab chiqariladigan mahsulot turlarini yangilash hamda kengaytirish, ularning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, aksionerlik jamiyatlarida sifatni boshqarish tizimini joriy etishda yuzaga keladigan muammolarni o'rganish milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T., 2013-y.
2. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.-T.:2.09.1994
3. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonuni.-T. Qonunlar to'plami, Adolat, 2002-y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni, 06.01.2012. №319.- T.: O'zbekiston, 2012-y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14-martdagi "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi №3860-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 361-sonli Qarori.- T.:22.08.1998.
7. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010-yil 15-dekabrdagi PQ-1442-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora tadbirlari to'g'risida. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.
9. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: "O'zbekiston" -2013.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I.Aning "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi" nomli

mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: "O'zbekiston"-2012.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasi. // Toshkent oqshomi gazetasi, 2014-yil, 20-yanvar.

12. Karimov.I.A. Bizning yo'limiz –demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. //Xalq so'zi, 2011-yil, 8-dekabr, №238(5405).

13. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish etishlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.//Xalq so'zi, 2005-yil 29-yanvar, №13

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

1. Ulashev.O.I., Atamuradov.A.Sh. "Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti". Darslik.-T.: "Tafakkur bo'stoni", 2013.- B.232

2. Gulyamov S., Qosimov G'. va boshqalar. "Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti". Darslik.-T.: "Tafakkur bo'stoni", 2013.- B.456

3. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y., "Menejment". Darslik.-T.: "O'qituvchi", 2001. – B.702

4. Yuldashev N., Sobirjonova D., To'lagoanova Sh. "Strategik menejment". O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. –B.150

5. Sabirjanova D., Sulaymonov B., "Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish". O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. –B.200

6. Nurimbetov R., Ahmedov S., "Ishlab chiqarish menejmenti". O'quv qo'llanma. T.: "Talqin", 2008. – B.112

7. Hojiahmedov G'. H., Yaxyayeva I. K., Yo'ldoshev N. Q. "Mahsulot sifatini boshqarish" o'quv qo'llanma. T.: "Iqtisodchi", 2010. –B.150
8. Peregudov L., Fayziyev R. va boshqalar. "Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini boshqarish". Toshkent –" Moliya" – 2012.
9. Bakiyev.A. va boshqalar. "Ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiyot". O'quv qo'llanma. T.:«IQTISOD-MOLIYA», 2010. –B. 208

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Hojiahmedov G'. H., Usmonov A. A., "Mahsulot sifatini oshirishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish yo'llari". Sifat menejmenti tizimini yaratish – iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omili. Respublika ilmiy – amaliy anjumani tezislar to'plami. 2001 yil 16 fevral. –T.: "Iqtisodiyot", 2011. – 293 b.
1. Alimov R., Rasulev A., Qodirov A. va boshq. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish muammolari:nazariya va amaliyot. – T.:Konsauditinform-Nashr. 2006.
2. Safarov N. Xalqaro transport xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari: avtoreferati Toshkent-2012.-B. 30.
3. Amonboyev M.R. Korporativ korxonalar faoliyatini innovatsion boshqarish sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalshning asosiy yo'nalishlari. Iqt.fan.nomz...diss. T.:2012.
4. "BMKB Agro-Mash OAJ"ning biznes reja va ustav ma'lumotlari.

IV. Internet saytlari

- 1 www.soliq.uz
2. www.uzdenometr.com
3. www.BPK.uz
4. www.gov.uz
5. www.lex.uz

Ilovalar

2013-2014-yillarda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarning ma'naviy eskirgan asbob-uskunalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan almashtirigan holda ularni foydalanishdan chiqarish va yangilashning maqsadli parametrlari

Vazirlik va xo'jalik birlashmalari tarkibiga kiradigan korxonalar nomi	Jami 2013-2014-yillarda eskirgan asbob-uskunalar o'rniga almashtirilganlar soni	shu jumladan:			
		2013-yil		2014-yil	
		Almashtirilgan asbob- uskunalar soni	Taxminiy qiymat, ming dollar	Almashtiriladigan asbob-uskunalar soni	Taxminiy qiymat, ming dollar
“O'zbekenergo” DAK	3500	1689	74781,5	1811	99402,7
“O'zbekneftgaz” MXK	1458	737	154941,1	721	205655,1
“O'zkimyosanoat” DAK	1643	1370	19292,8	273	27972,4
“O'zmetkombinat” OAJ	3	1	300,0	2	7870,0
“O'zbekko'mir” OAJ	70	42	36517,0	28	43112,0
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” DK	540	254	30957,3	286	25984,8
“Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati” OAJ	819	400	11968,0	419	13759
“O'zavtosanoat” AK	219	107	8923,3	112	17434,7
“O'zeltexsanoat” uyushmasi	145	86	6192,6	59	2249,8
“Chkalov nomli Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi” DAK	89	40	1585,2	49	2794,5
“Fayz” XK	14	7	258,0	7	146,0
“TTZ” OAJ	20	20	1200,0	0	0,0
“Agregat” zavodi OAJ	11	3	235,0	8	530,0
“Texnolog” OAJ	4	2	122,1	2	122,1
“Chirchiqqishloqmash” OAJ	10	4	270,0	6	395,5

“O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK	27	10	600,0	17	1000,0
“O‘zavtoyo‘l” DAK	70	43	2240,0	27	828,0
“O‘zqurilishmateriallari” AK	236	229	3410,0	7	1037,0
“O‘zmontajmaxsusqurilish” uyushmasi	4	2	152,2	2	100,0
Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi	57	33	11416,0	24	15274,0
“O‘zdonmahsulot” uyushmasi	1413	658	5605,0	755	5892,0
Oziq-ovqat korxonalari uyushmasi	109	61	2404,0	48	1591,0
“O‘zpaxtasanoat” uyushmasi	30	21	2-16,0	9	2623,0
“O‘zvinsanoat-xolding” XK	87	81	3466,7	6	1920,0
“O‘zbekiyengilsanoat” DAK	404	221	3120,0	183	1296,0
“O‘zagromashservis” uyushmasi	8	3	38,9	5	55,8
“O‘zfarmasanoat” DK	74	25	301,6	49	1004,8
O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi	6	4	3500,5	2	315,4
“Sharq” NMAK	7	4	3173,7	3	594,5
O‘zbekiston bo‘yicha	11077	6157	388988,5	4920	481960,1

2013-yilda zamonaviy asbob-uskunalariga ajratilgan korxonalar ulushi, foizda

